


Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,3 % ga kamaydi. Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 30,8 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,5 % ga kamaydi.




2020-yil yanvar-aprel oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da)

2020-yilning shu davriga nisbatan Toshkent shahrining hududlarida chakana savdo tovar aylanmasida o'sish sur'ati kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'ati Mirobod (96,4 %), Bektemir (94,9 %), Yashnobod (94,4 %), Chilonzor (93,5 %) va Shayxontohur tumanlarida (91,8 %) qayd etildi. Ayrim tumanlarda jumladan, Olmazor tumanida (79,1 %) nisbatan past ko'rsatkich sezilgan.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 600,3 mlrd. so'm bo'lib, 72,8 % tashkil etdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 5,2 % ni tashkil qildi.

2020-yil yanvar-aprel oylarida ovqatlanish tashkilotlarining jamiga nisbatan ulushi



Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulushni Yunusobod (17,5 %), Shayxontohur (13,5 %), Mirzo Ulug'bek (11,0 %) tumanlari tashkil etgan bo'lsa, Yashnobod (5,9 %), Uchtepa (5,4 %) va Bektemir tumanlarida (1,9 %) eng past ko'rsatkich qayd etildi.




TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2020-yil yanvar-aprel

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 30,8 % ni tashkil etdi. Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar: Chilonzor (17,1 %), Shayxontohur (11,5 %), Yunusobod (10,4 %) va Uchtepa (9,4 %). Ushbu tumanlar chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasining ulushi (jamiga nisbatan, foizda)





TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2020-yil yanvar-aprel


Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 3407,0 ming so'mni tashkil etdi. O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Bektemir (28 153,9 ming so'm), Chilonzor (7 837,6 ming so'm), Yakkasaroy (7 498,7 ming so'm), Mirobod (6 446,4 ming so'm) Uchtepa (3 941,9 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so'm	O'sish sur'ati
Toshkent sh.	4 448,2	87,5
Uchtepa	3 941,9	79,9
Bektemir	28 153,9	93,0
Yunusobod	3 515,7	85,6
Mirzo Ulug'bek	2 800,9	85,5
Mirobod	6 446,4	94,8
Shayxontohur	3 832,9	90,8
Olmazor	1 902,6	77,7
Sergeli	4 449,6	85,3
Yakkasaroy	7 498,7	89,0
Yashnobod	3 323,2	90,6
Chilonzor	7 837,6	91,9

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

(o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan, foizda)




2020-yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi Toshkent shahri bo'yicha aholi jon boshiga 4 448,2 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 87,5 % ga kamaygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yil yanvar-aprel oylarida o'tgan yilga nisbatan Toshkent shahrida eng yuqori o'sish Mirobod (94,8 %), Bektemir (93,0 %), Chilonzor (91,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha o'sish sur'ati eng kam ko'rsatkichlar Uchtepa (79,9 %) hamda Olmazor (77,7 %) tumanlarida qayd etilgan.



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2020-yil yanvar-aprel

Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi (jami chakana savdo aylanmasida)



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi eng katta bo'lgan tumanlar: Mirzo Ulug'bek (59,6%), Olmazor (53,9 %), Mirobod (41,1 %) va Uchtepa (34,4 %) tumanlari. Bu tumanlar Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Shu bilan birga past ko'rsatkich Yashnobod (22,3 %) va Bektemir tumanlari (14,6 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI


2020-yil yanvar-aprel

2020-yil yanvar-aprel oylarida ulgurji savdo

2020-yil yanvar-aprel oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 16 870,0 mlrd. so'mni yoki 2019-yilning shu davriga nisbatan 97,9 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 79,2 % ga o'sib 3 998,7 mlrd. so'mni va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 23,7 % ni tashkil qildi.


Kichik korxonalar va mikrofirmalar 12 872,1 mlrd. so'mga yetib, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 76,3 % ni tashkil qildi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdodagi ulushi (jami savdoga nisbatan, % da)

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tovar aylanmasi 3 077,1 mlrd. soʻmga yetdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 35,0 % ni tashkil qildi.


Kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng koʻp ulushi Uchtepa (97,1 %), Bektemir (97,0 %), Shayxontohur (95,5 %) va Yunusobod tumanlariga (86,6 %), eng past ulush esa Yakkasaroy (70,4 %), Olmazor (69,8 %) va Yashnabod tumanlariga (47,8 %) toʻgʻri kelgan.



Ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi (jamiga nisbatan foizda)


2020 yilning yanvar–aprel oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 16 870,0 mlrd. so‘mni yoki 2019-yilning shu davriga nisbatan 97,9 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar: Olmazor 13,0 %, Chilonzor 12,3 %, Yakkasaroy 12,2 %, Yashnobod 11,9 %. Ba’zi tumanlar ya’ni Sergeli 6,1 %, Uchtepa 5,2 %, Bektemir tumanlarida 1,3 % jamiga nisbatan eng past ko'rsatkich qayd etildi.



2020 yil yanvar–aprel

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji tovar aylanmasidagi ulushi (jamiga nisbatan foizda)



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 14,2 % ga kamayib, 12 872,1 mlrd. soʻmga yetdi va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 76,3 % ni tashkil qildi.

Ulgurji tovar aylanmasida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi eng yuqori boʻlgan tumanlar: Mirzo Ulug'bek - 12,6 %, Mirobod - 11,9 %, Olmazor - 11,9 %, Yakkasaroy - 11,3 % hamda Shayxontohur - 10,6 %. Eng past ko'rsatkich Bektimir tumanida (1,7 %) qayd etilgan.

Chakana savdo tovar aylanmasining (ovqatlanishni qo'shgan holda) tarkibi, foizda (2020-yil yanvar-aprel oylari holatiga)



Umumiy tovar aylanmasi hajmining 4 256,0 mlrd. soʻm miqdori yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslarning hisobiga toʻgʻri keldi. 2019-yilning shu davriga nisbatan 94,5 % tashkil qildi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 37,1 % ga teng.

Jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar - 37,1 %

Kichik korxonalar - 32,1 %


Yirik korxonalar - 30,8 %



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2020-yil yanvar-aprel

Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi (jamiga nisbatan foizda)



Toshkent shahrida yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 30,8 % ga teng bo'lib, hajmi 3 532,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar: Yashnobod tumani - 26,2 %, Olmazor tumani - 16,6 %, Yakkasaroy tumani - 15,3 %, Chilonzor tumani - 14,1 %. Ba'zi tumanlar ya'ni Uchtepa tumanida 0,6 % va Bektemir tumanida 0,2 % ko'rsatkich qayd etildi.

Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi (jamiga nisbatan foizda)



Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar: Chilonzor - 29,0 %, Yakkasaroy - 15,1 %, Mirobod - 10,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, Bektemir tumani 3,0 %, Uchtepa tumani 1,6 %, Yunusobod tumani 5,0 % bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.





TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Toshkent shahar statistika boshqarmasi Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi



Ma'lumot uchun telefon:

71-230 88 20

71-230 88 21